

2-hurs

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIV TA'LIM, FAN VA
INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI



Ro'yxatga olindi: № BD.60410100-2.007
2024-yil " 26 " 06

MAKROIQTISODIYOT

FANING O'QUV DASTURI

Bilim sohasi	400000 – Biznes, boshqaruv va huquq
Ta'lim sohasi	410000 - Biznes va boshqaruv
Ta'lim yo'nallishi	60410100 – Buxgalteriya hisobi va audit (tarmoqlar bo'yicha)

Termiz - 2024

Fan/modul kodi	O'quv yili	Semestr	ECTS - Kreditlar	
Mak1207	2024-2025	4	4	
Fan/modul turi	Ta'lim tili	Haftadagi dars soatlari		
Tanlov fan	O'zbek	4		
Fanning nomi	Auditoriya mashg'ulotlari (soat)	Mustaqil ta'lim (soat)	Jami yuklama (soat)	
1. Makroiqtisodiyot	60	60	120	
2.	I. Fanning mazmuni			
	<p>Makroiqtisodiy barqarorlik va yalpi ishlab chiqarishning yuqori o'sish sur'atlarini ta'minlash orqali aholining turmush farovonligi darajasini o'stirish davlat iqtisodiy siyosatida bosh maqsad bo'lib hisoblanadi. Davlat iqtisodiy siyosatining nazariy asoslari sifatida tan olinadigan fanlar qatorida "Makroiqtisodiyot" fani alohida o'rin tutadi.</p> <p>Yalpi ishlab chiqarishning barqaror o'sishini, resurslarning to'liq bandligini, inflatsiyaning past sur'atlarini va to'lov balansining muvozanatini ta'minlash nuqtai nazaridan mamlakat iqtisodiyotini bir butun holda tadqiq qilish va uni makroiqtisodiy tartibga solishning iqtisodiy mexanizmlarini o'rganish "Makroiqtisodiyot" fanining predmetini tashkil etadi.</p> <p>"Makroiqtisodiyot" fani milliy iqtisodiyotning rivojlanishi bilan bog'liq barcha jihatlarini, jumladan mehnat resurslari, tovarlar, pul bozorlarining amal qilishi, monetar, fiskal va tashqi savdo siyosatini amalga oshirish hamda boshqa masalalarni qamrab oladi.</p> <p>Fanni o'qitishdan maqsad – talabalarda makroiqtisodiyot nazariyasi va davlatning makroiqtisodiy siyosati to'g'risida bir tizimga solingan bilim va ko'nikmalarni shakllantirishdan iborat.</p> <p>Fanning vazifalari – makroiqtisodiy kategoriyalar, makroiqtisodiy muammolarning namoyon bo'lishi shakllari va sabablari, iqtisodiy jarayonlarni makroiqtisodiy modellarni vositasida tahlil etish, makroiqtisodiy siyosat maqsadlari va vositalari, ochiq iqtisodiyot sharoitida makroiqtisodiy siyosat yuritish xususiyatlari to'g'risida ilmiy tasavvurlarni shakllantirish hamda makroiqtisodiy ko'rsatkichlarni hisoblash, makroiqtisodiy konsepsiya va modellardan foydalangan holda iqtisodiy jarayonlarni tahlil qilish, makroiqtisodiy siyosat natijalarini aniqlash usullarini o'rgatishdan iborat.</p>			

II. Asosiy nazariy qism (ma'ruza mashg'ulotlari)	
II.1. Fan tarkibiga quyidagi mavzular kiradi:	
1-MODUL. "MAKROIQTISODIYOT" FANINING NAZARIY ASOSLARI	
1-mavzu. "Makroiqtisodiyot" fanining predmeti, maqsadi va tadqiqot usullari	<p>"Makroiqtisodiyot" fanining shakllanish tarixi. Dastlabki makroiqtisodiy tahlil elementlari, "Kene jadvali". Asosiy makroiqtisodiy muammolar. "Makroiqtisodiyot" fanining predmeti va usullari. "Makroiqtisodiyot" fanining iqtisodiy sohasidagi boshqa fanlar bilan aloqadorligi. Makroiqtisodiy modellar. Yopiq va ochiq iqtisodiyot. Endogen va egzogen o'zgaruvchilar.</p> <p>2-mavzu. Milliy hisobchilik va makroiqtisodiy ko'rsatkichlar</p> <p>Milliy hisobchilikning mohiyati va ahamiyati. Milliy iqtisodiyotni tahlil qilishda qo'llaniladigan ko'rsatkichlar tizimi. Yalpi ichki mahsulot milliy hisoblar tizimining asosiy makroiqtisodiy ko'rsatkichi sifatida. Oraliq hamda yakuniy tovarlar va xizmatlar. YalMni hisoblashning ishlab chiqarish usuli. YalMni xarajatlar bo'yicha hisoblash. Shaxsiy iste'mol xarajatlari. Yalpi investitsiyalar. Tovarlarning va xizmatlarning davlat xaridi. Sof eksport. YalMni daromadlar bo'yicha hisoblash. Yalpi milliy daromad. Sof ichki mahsulot. Sof milliy daromad. Iste'mol. Jamg'arish. Nominal va real YalM. YalM deflyatori (Paashe indeksi). Iste'mol narxlar indeksi (INI). Fisher indeksi.</p> <p>3-mavzu. Iqtisodiy sikllar. Ishsizlik</p> <p>Iqtisodiy sikllarning mohiyati. Iqtisodiy tebranishlarning sabablari: Ilmiy texnika taraqqiyoti. Siyosiy hodisalar. Tabiat hodisalar. Talab va taklif o'rtasidagi nisbat. Yalpi xarajatlardagi o'zgarishlar. Iqtisodiy sikllarning fazalari va ularning tavsifi. Ishsizlik tushunchasi. Ish bilan bandlar va ishsizlar. Ishsizlikning neoklassik va keynscha konsepsiyalari. Real ish haqi, ish kuchi taklifi va unga talab. Ishsizlikning keynscha konsepsiyasi. Ishsizlikning haqiqiy va tabiiy darajasi. Potensial va haqiqiy YalM. Ishsizlikning iqtisodiy oqibatlari. Ouken qonuni.</p> <p>4-mavzu. Inflyatsiya va aksiiinflyatsiya siyosati</p> <p>Inflyatsiya: mohiyati, hisoblanishi va turlari. Inflyatsiya darajasi. Inflyatsiyani miqdoran o'lchash. Narxlarning barqaror o'sishi sharoitida inflyatsiya darajasi. Inflyatsiyaning sabablari, pulning miqdoriy nazariyasi. Pul massasining ko'payishi. Pulning aylanish tezligi ortishi. Mahsulot ishlab chiqarish hajmlarining pasayishi. Talab inflyatsiyasi. Inflyatsion kutish. Xarajatlar inflyatsiyasi. Talab va taklif inflyatsiyasining qo'shilishi modeli. Kutilgan va kutilmagan inflyatsiya. Fisher samarasi. Inflyatsiyaning ijtimoiy oqibatlari. Inflyatsiya va ishsizlik. Fillips egri chizig'i. Inflyatsiyaga qarshi siyosatning</p>

mohiyati, vositalari. Inflyatsiyaga qarshi siyosatning monetaristik yo'nalishi. O'zbekiston Respublikasi iqtisodiyotidagi inflyatsiya jarayonlari va aksilinflyatsiya siyosati xususiyatlari.

5-mavzu. Yalpi talab – yalpi taklif modeli

Yalpi talab tushunchasi. AD egri chizig'i. Narx omillari. Foiz stavkasi samarasi. Boylik samarasi va import xaridlari samarasi. AD egri chizig'i trayektoriyasi. Pulning miqdoriy nazariyasi. Narxlar darajasi va yalpi talab o'rtasidagi teskari bog'liqlik. Narxdan boshqa omillarning yalpi talabga ta'siri. Yalpi taklif tushunchasi va egri chizig'i. Resurslar narxining o'zgarishi. Yalpi taklifdagi o'zgarishlar. Yalpi taklifning klassik modeli. AS egri chizig'ining vertikalligi. Yalpi taklifning keynscha modeli. Narxlarning muvozanatli darajasi. Umumiy muvozanat tushunchasi. AD-AS modelida muvozanatning ta'minlanishi mexanizmi. Talab shoklari. Taklif shoklari. Yalpi taklif o'zgarishining oqibatlari. Barqarorlashtirish siyosati. Pul taklifi va davlat xarajatlarning o'zgartirilishi.

6-mavzu. Iste'mol, jamg'arish va investitsiya funksiyalari

Yalpi talab komponentlari orasida iste'molning o'rni. Iste'mol funksiyasining algebraik va grafik ko'rinishi. "Asosiy psixologik qonun". Avtonom iste'mol. Daromad (shaxsiy tasarrufdagi daromad) va iste'mol o'rtasidagi o'zaro bog'liqlik. Jamg'arish funksiyasi va grafigi. Foiz stavkasi va jamg'arish. Iste'molga (ARC) va jamg'arishga o'rtacha moyillik (APS). Iste'molga (MRC) hamda jamg'arishga (MPS) chegaraviy moyillik. Avtonom investitsiyalar. Foiz stavkasi. Kutilayotgan sof foyda normasi. Tobin koeffitsienti. Investitsiyalarga talab funksiyasi. Akselerator modeli. Investitsiyalashga chegaraviy moyillik. Investitsiyalarning beqarorligini belgilovchi omillar.

7-mavzu. Keynsning tovarlar va xizmatlar bozoridagi makroiqtisodiy muvozanat modeli

Keynsning makroiqtisodiy muvozanat nazariyasi asoslari. Haqiqiy va rejalashtirilgan xarajatlar. "Keyns xocho'i". Ishlab chiqarish hajmining muvozanat darajasiga erishish mexanizmi. Avtonom xarajatlar multiplikatori. Refsesson va inflyatsion uzilish.

2-MODUL. DAVLATNING MAKROIQTISODIY SIYOSATI

8-mavzu. Davlat budjeti. Soliqlar va davlat qarzi.

Davlat budjetining mohiyati, tarkibi va funksiyalari. Daromadlarni qayta taqsimlash. Iqtisodiyotni davlat tomonidan tartibga solish va rag'batlantirish. Ijtimoiy siyosatni moliyaviy ta'minlash. Davlat budjeti daromadi. Davlat nobudjet jamg'armalari. Konsolidatsiyalashgan budjet. Soliqlar. Soliqlarning turlari, funksiyalari. Soliqqa tortish mezonlari Soliq yuki. Laffer egri chizig'i. Chegaraviy soliq stavkasi. Davlat budjeti xarajatlari. Budjet taqchilligi. Davlat

budjetining xarajatlari. Davlat budjetining soliqdarga ko'ra tarkibi. O'zbekiston Respublikasida soliq islohotlarining o'ziga xos xususiyati.

9-mavzu. Budjet-soliq siyosati

Budjet-soliq (fiskal) siyosati: mohiyati, maqsadlari, vositalari. Rag'batlantiruvchi va cheklovchi fiskal siyosat. Yopiq va ochiq iqtisodiyotda davlat xarajatlari multiplikatori. Soliq multiplikatsiyasi mexanizmi. Soliq multiplikatori. Balanslashgan budjet multiplikatori. Diskret fiskal siyosat. Davlat budjeti taqchilligi va profitsiti. Nodiskret fiskal siyosat. Avtomatik barqarorlashtirgichlar. Progressiv soliq tizimi. Davlat transferlari tizimi. Davriy taqchillik va davriy profitsit. Davlat budjetining tarkibiy taqchilligi. Tarkibiy profitsit. Taqchillikni moliyalash usullari. Taqchillikni monetlashtirish va Oliver-Tanzi samarasi. Davlat obligatsiyalarini chiqarish va siqib chiqish samarasi.

10-mavzu. Pul bozorida muvozanat

Pul tushunchasi va uning funksiyalari. Pul agregatlari. Pulga talabning klassik nazariyasi. Pulga talabning keyscha nazariyasi. Pulga bo'lgan talab funksiyasi. O'zbekistonda pul agregatlari va pul massasi tarkibi. Pul taklifi. Bank multiplikatori. Pul taklifining kengaytirilgan modeli. Pul multiplikatori.

11-mavzu. Pul-kredit siyosati

Bank tizimining tarkibi. Pul-kredit (monetar) siyosatining mohiyati. Majburiy zahiralash normasi. Asosiy stavka (qayta moliyalash stavkasi). Ochiq bozordagi operatsiyalar. Qat'iy va yumshoq pul-kredit siyosati. Pul-kredit siyosatining ta'sirini ishlab chiqarish hajmiga etkazish mexanizmi. YalMning o'sishi va pul-kredit siyosati. Pul-kredit siyosatining ko'zda tutilmagan salbiy samaralari. Pul-kredit va budjet-soliq siyosatini muvofiqdoshlashtirish muammolari, siqib chiqarish samarasi. O'zbekiston Respublikasida bank tizimi barqarorligini oshirish va pul-kredit siyosatini takomillashtirishning asosiy yo'nalishlari.

12-mavzu. IS-LM modelining shakllanishi va tadbiri

Xiks-Xansen modelining mohiyati. Modelning tenglamalari va asosiy o'zgaruvchilari. Ekzogen va endogen o'zgaruvchilar. Empirik koeffitsiyentlar. Tovarlarning va xizmatlar bozoridagi muvozanat. IS egri chizig'i. IS egri chizig'ining tenglamasi.

LM egri chizig'i. LM egri chizig'ining tenglamasi. LM egri chizig'ining gorizontal, ko'tarilib boruvchi va vertikal kesimlarida multiplikator samarasi. Daromadlar, pulga talab va foiz stavkasi. IS-LM modelidagi muvozanat. Tovar va pul bozoridagi muvozanat. IS-LM modelida budjet-soliq siyosati. IS-LM modelida pul-kredit siyosati. Pul-kredit siyosatining samaradorligi. Likvidlik tuzog'i. Investitsiya tuzog'i.

13-mavzu. Iqtisodiy o'sish modellari

Iqtisodiy o'sish tushunchasi, ahamiyati. Ishlab chiqarish imkoniyatlari egri chizig'i. Ishlab chiqarishning potentsial hajmi dinamikasi. Iqtisodiy o'sishning o'lchanishi, real YaIM va aholi jon boshiga to'g'ri keladigan real YaIM dinamikasi. Ekstensiv va intensiv iqtisodiy o'sish. Iqtisodiy o'sishning taklif, talab va taqsimot omillari. Ishlab chiqarishning moddiy-ashyoiviy omillari. Mehnat unumdorligini oshiruvchi omillar. Iqtisodiy o'sish modellarning mohiyati va ahamiyati. Iqtisodiy o'sishning nekeynscha modellarning o'ziga xos xususiyatlari. E.Domar modeli. Akselelator prinsipi. Talab tenglamasi. Taklif tenglamasi. Talab va taklif muvozanati tenglamasi. R.Xarrod modeli.

14-mavzu. Davlat tomonidan iqtisodiyotni tartibga solish

Iqtisodiyotni tartibga solishda davlatning ishtiroki tavsifi va darajasini o'zgarishi. Davlatning iqtisodiy vazifalari. Davlat tomonidan tartibga solish subyektlari va obyektleri. Iqtisodiyotga davlat aralashuvining shakllari va usullari. Iqtisodiyotga davlat aralashuvining chegaralari. Ijtimoiy tovarlar: tushunchasi, mohiyati va tasnifi. Davlat sektori va davlat mulki. Milliy iqtisodiyotda ijtimoiy tanlov.

15-mavzu. Tashqi savdo siyosati

Tashqi savdo siyosati, mohiyati, maqsadlari va usullari. Tarif va notarif usullari. Import tariflari. Tariflarning narxlar darajasi, iste'molchilar va ishlab chiqaruvchilarga ta'siri. Milliy farovonlikning sof yo'qotilishi. Yangi paydo bo'lgan tarmoqlarni himoya qilish. Ichki bandlik darajasi va davlat daromadlarining o'sishi. Dempingdan himoya. "Optimal tarif". Ishlab chiqaruvchilarga subsidiyalar. Eksportga bojlar: qo'llashdan kutilgan maqsadlar, aholi turmush darajasi, ishlab chiqaruvchilar va davlat manfaatlariga ta'siri. Eksportni "ixtiyoriy" cheklash. Eksport subsidiyalari va kompensatsiyalovchi import bojleri. Import kvotalari. Import litsenziyalarini taqsimlash uslublari.

III. Amaliy mashg'ulotlari bo'yicha ko'rsatma va tavsiyalar

Amaliy mashg'ulotlar uchun quyidagi mavzular tavsiya etiladi:

1. "Makroiqtisodiyot" fanining predmeti, maqsadi va tadqiqot usullari.
2. Milliy hisobchilik va makroiqtisodiy ko'rsatkichlar.
3. Iqtisodiy sikllar. Ishsizlik.
4. Inflyatsiya va aksinflatsiya siyosati.
5. Yalpi talab – yalpi taklif modeli.
6. Iste'mol, jamg'arish va investitsiya funksiyalari.
7. Keynsning tovarlar va xizmatlar bozorida makroiqtisodiy muvozanat modeli.
8. Davlat budjeti. Soliqlar va davlat qarzi.
9. Budjet-soliq siyosati.

10. Pul bozorida muvozanat.

11. Pul-kredit siyosati.

12. IS-LM modelning shakllanishi va tadbiqi.

13. Iqtisodiy o'sish modellari.

14. Davlat tomonidan iqtisodiyotni tartibga solish.

15. Tashqi savdo siyosati.

Amaliy mashg'ulotlar multimedia qurilmalari bilan jihozlangan auditoriyada bir akademik guruhga bir professor-o'qituvchi tomonidan o'tkazilishi zarur. Mashg'ulotlar faol va interaktiv usullar yordamida o'tilishi, mos ravishda munosib pedagogik va axborot texnologiyalar qo'llanilishi maqsadga muvofiq.

IV. Mustaqil ta'lim va mustaqil ishlar

Mustaqil ta'lim uchun tavsiya etiladigan mavzular:

1. Makroiqtisodiy modellar. Asosiy makroiqtisodiy modellarning qiyosiy tahlili.
2. MHT'da yalpi ichki mahsulot ko'rsatkichini hisoblash shartlari va usullari.
3. Mustaqillik yillarida O'zbekiston Respublikasi rivojlanishining makroiqtisodiy ko'rsatkichlari tahlili.
4. Asosiy makroiqtisodiy ko'rsatkichlar va ularni hisoblash.
5. O'zbekiston Respublikasining YaIM tarkibidagi o'zgarishlar tahlili.
6. O'zbekiston Respublikasida mehnat bozorining shakllanishi va ishsizlikning o'ziga xos xususiyatlari.
7. Xususiy tadbirkorlikning aholini ish bilan ta'minlashdagi o'rni.
8. Ishsizlikning iqtisodiy oqibatlari. Ouken qonuni.
9. Inflyatsiyaning mohiyati va kelib chiqish sabablari.
10. Inflyatsiyaga qarshi siyosat.
11. Filips egri chizig'i. Modelning zamonaviy talqini.
12. Iste'mol va jamg'arish funksiyalari.
13. Ratsional kutish nazariyasi.
14. Investitsiya funksiyasi va omillari.
15. O'zbekiston Respublikasi investitsiya siyosati.
16. Yalpi talab- yalpi taklif modeli.
17. Yalpi talab va yalpi taklifni rag'batlantirish yo'llari.
18. AD-AS modelida muvozanatning ta'minlanishi mexanizmi.
19. Keynsning makroiqtisodiy muvozanat modeli.
20. Pul tushunchasi va funksiyalari. Fisher va Kembrij tenglamalari.
21. Pul bozorida muvozanat.
22. Soliqlarning makroiqtisodiy mohiyati va roli.
23. O'zbekiston Respublikasida soliq siyosatini takomillashtirish yo'llari.
24. Davlat budjeti tarkibi va uni takomillashtirish yo'llari.
25. Budjet -soliq siyosati.
26. O'zbekiston Respublikasi budjet-soliq siyosati.
27. Budjet taqchilligi.
28. Pul-kredit siyosati.

<p>29. O'zbekiston Respublikasi pul-kredit siyosati.</p> <p>30. Pul-kredit siyosati va ulardan foydalanish amaliyoti tahlili.</p> <p>31. Pul-kredit va budget-soliq siyosatini muvofiqlashtirish muammolari.</p> <p>32. IS-LM modelida budget- soliq va pul-kredit siyosati.</p> <p>33. Xiks-Xansen modeli. Ekzogen va endogen o'zgaruvchilar.</p> <p>34. Iqtisodiy o'sish omillari va tiplari.</p> <p>35. Iqtisodiy o'sish modellarning mohiyati.</p> <p>36. Iqtisodiy o'sishning neoklassik modellari.</p> <p>37. Iqtisodiy o'sishning neoklassik modellari.</p> <p>38. Zamonaviy iqtisodiy o'sish modellari.</p> <p>39. Xalqaro savdo nazariyalari.</p> <p>40. Mutlaq va nisbiy ustunlik nazariyalarning o'ziga xos xususiyatlari.</p> <p>41. Jahon bozorida talab, taklif va taqsimot.</p> <p>42. Xeksher-Olin nazariyasi. Ishlab chiqarishning ortiqcha va taqchil omillari.</p> <p>43. Import kvotalari. Kvotalashning iste'molchilar, ishlab chiqaruvchilar va davlat manfaatlariga ta'siri.</p> <p>44. Tashqi savdo siyosati.</p> <p>45. Tashqi savdo tarkibini takomillashtirish va diversifikatsiyalash.</p> <p>46. O'zbekiston Respublikasining tashqi savdo siyosati.</p> <p>47. O'zbekiston Respublikasining tashqi iqtisodiy aloqalari va MDH davlatlari bilan iqtisodiy hamkorligi.</p> <p>48. To'lov balanslari.</p> <p>49. O'zbekiston Respublikasi to'lov balanslari.</p> <p>50. Valuta kursi.</p> <p>51. O'zbekiston Respublikasi valuta siyosati.</p> <p>52. Kichik ochiq iqtisodiyot modeli.</p> <p>53. Ochiq iqtisodiyotda budget-soliq siyosati.</p> <p>54. Ochiq iqtisodiyotda pul-kredit siyosati.</p> <p>Mustaqil o'zlashtiriladigan mavzular bo'yicha talabalar tomonidan loyiha ishi, esse, tezis yoki ilmiy maqola yozish, referatlar tayyorlash va uni taqdimot qilish tavsiya etiladi.</p> <p>V. Fan o'qitilishining natijalari (shakllanadigan kompetentsiyalar)</p> <p>Fanni o'zlashtirish natijasida talaba:</p> <ul style="list-style-type: none"> • "Makroiqtisodiyot" fanining predmeti, obyekti, makroiqtisodiy agentlar; • makroiqtisodiy ko'rsatkichlarning mohiyati va ularni hisoblash shartlari; • asosiy makroiqtisodiy modellar va ularda iqtisodiy jarayonlarning kechishi hamda makroiqtisodiy siyosat natijalarini aks ettirish; • tovarlar va xizmatlar bozorida makroiqtisodiy muvozanatga erishish mehanizmining mohiyati; • pulga talab, pul taklifi va pul bozorida muvozanatga ta'sir etuvchi omillar; • budget-soliq va pul-kredit siyosatining maqsadlari, vositalari; • iqtisodiy o'sishning mohiyati, o'lchanishi, omillari va modellari; • tashqi savdo siyosatining nazariy asoslari va vositalari;
--

<ul style="list-style-type: none"> • mamlakat to'lov balansining tuzilishi va uni tartibga solish usullari; • valuta kursining mohiyati, makroiqtisodiy ahamiyati, uni belgilovchi omillar va barqarorligini ta'minlash shartlari; • ochiq iqtisodiyotda makroiqtisodiy siyosatni amalga oshirish xususiyatlari haqida <i>tasavvurga ega bo'lishi</i>; • iqtisodiy jarayonlarni tahlil qilishda makroiqtisodiy modellarni qo'llashni; • makroiqtisodiy ko'rsatkichlarni tahlil qilishni; • makroiqtisodiy siyosatning ijobiy va salbiy oqibatlariga baho berishni; • makroiqtisodiy siyosatning istiqboldagi rivojlanish yo'nalishlarini prognoz qilishni <i>bilishi</i>; • makroiqtisodiy ko'rsatkichlarni hisoblash; • asosiy makroiqtisodiy modellarning o'zgaruvchilarini aniqlash va tenglamalarini tuzish; • tovarlar va xizmatlar bozorida qisqa va uzoq muddatli muvozanatni ta'minlash mexanizmini tushuntirib berish; • pul bozorida muvozanat yuzaga kelishining xususiyatlarini aniqlash; • makroiqtisodiy siyosatning iqtisodiy jarayonlar va alohida ko'rsatkichlarga ta'sir ko'rsatishi qonuniyatlarini aniqlash; • turli makroiqtisodiy vaziyatlarda budget-soliq yoki pul-kredit siyosatini qo'llash hamda o'zaro muvofiqlashtirish shartlarini tushuntirib berish; • tashqi savdo siyosati va valuta kursini tartibga solish orqali to'lov balansini holatiga, yalpi talab va yalpi taklif hajmlariga ta'sir ko'rsatish usullarini tavsiflab berish; • ochiq iqtisodiyot sharoitida makroiqtisodiy jarayonlarning kechishi hamda makroiqtisodiy siyosatning o'ziga xos xususiyatlarini, milliy va jahon iqtisodiyoti darajasida bozor mexanizmi qanday amal qilishini izohlab berish <i>ko'nikmalariga ega bo'lishi</i> kerak. 	<p>3.</p> <p>VI. Ta'lim texnologiyalari va metodlari:</p> <ul style="list-style-type: none"> • real vaziyatga asoslangan amaliy ishlarni bajarish; • esse, tezis va maqolalar yozish; • vaziyatli topshiriqlarni (keys-stadi) yechish; • jarayonli-yo'naltirilgan ta'lim; • muhokamalarda ishtirok etish; • kichik guruhlarda ishlash; • loyiha ishi bajarish; • mustaqil ishlarni bajarish; • taqdimot tayyorlash; • turli darajadagi testlarni yechish; • so'rov o'tkazish. • jamoa bo'lib ishlash va himoya qilish uchun loyihalar.
---	--

9. Taqrizchilar:	Gadoyev S.J. – Termiz davlat universiteti “Moliya va moliyaviy texnologiyalar” kafedrası mudiri, i.f.d. Otamurodov Sh.N. – Termiz iqtisodiyot va servis universiteti Xalqaro hamkorlik bo‘yicha prorektori, i.f.d.
-------------------------	---

5.	<p>VIII. Kreditlarni olish uchun talablar:</p> <p>Fanga oid nazariy va uslubiy tushunchalarni to‘la o‘zlashtirish, tahlil natijalarini to‘g‘ri aks ettira olish, o‘rganilayotgan jarayonlar haqida mustaqil mushohada yuritish va joriy, oraliq nazorat shakllarida berilgan vazifa va topshiriqlarni bajarish, yakuniy nazorat bo‘yicha test yoki yozma ishini topshirish.</p>
6.	<p>Asosiy adabiyotlar.</p> <ol style="list-style-type: none"> 1. Maxmudov N.M., Shakarov A.B., Ulashev X.A., Shakarov J.A. Makroiqtisodiyot: Darslik. -T.: “Innovatsion rivojlanish nashriyot-matbaa uyi”, 2022, 454 b. 2. Bekmurodov N.X., Tuxtabayev J.Sh., Yuldashev Sh.E., Usmanov A.A., Yarmatov Sh., Nurullayev U.U., Hasanov H.O. Makroiqtisodiyot. Darslik. – T.: Bookmany print, 2022, 344 b. 3. Asqarova M.T., Zaxidov G‘E., Amirov L.F., Jamolov J.J. Makroiqtisodiyot. Darslik. -T.: “Innovatsion rivojlanish nashriyot-matbaa uyi”, 2021, 280 b. <p>Qo‘shimcha adabiyotlar</p> <ol style="list-style-type: none"> 1. Mirziyoyev Sh.M. Yangi O‘zbekiston strategiyasi. Toshkent. “O‘zbekiston” NMIU, 2021, 464 b. 2. Mirzaxodjayev A.B., Sharifov Sh.S., Boboqulov S.B. Makroiqtisodiyot. O‘quv qo‘llanma. Samarqand: SamDU nashriyoti, 2021, 248 b. 3. Mankiw N. Gregory. Macroeconomics. Ninth edition. Worth Publishers, USA, New York, 2016, 644 p. <p>Axborot manbalari</p> <ol style="list-style-type: none"> 1. https://www.lex.uz - O‘zbekiston Respublikasi Qonun hujjatlari ma‘lumotlari milliy bazasi. 2. https://www.imv.uz/ - Iqtisodiyot va moliya vazirligi. 3. https://www.stat.uz/ - O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Statistika agentligi.
7.	<p>O‘quv dasturi Termiz davlat universiteti K engashining 2024-yil 26-iyundagi 11-sonli bayonnomasi bilan ma‘qullangan.</p>
8.	<p>Fan/modul uchun mas‘ullar:</p> <p>O.A.Abdug‘aniyev TerDU, Iqtisodiyot va turizm fakulteti dekani, i.f.d., professor</p> <p>B.E.Turayev TerDU, “Iqtisodiyot” kafedrası mudiri, iqtisodiyot fanlari bo‘yicha falsafa doktori.</p> <p>N.J.Nurmatov TerDU, “Iqtisodiyot” kafedrası katta o‘qituvchisi.</p> <p>F.D.Hojjiqulova TerDU, “Iqtisodiyot” kafedrası o‘qituvchisi.</p>